

NOSPETSIFIK SERVITSITNI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV

Sohibova G.K.

Ilmiy rahbar: **Kamilova I.A.** t.f.d.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbligi: Ayollarning reproduktiv organlarining yallig'lanish kasalliklari keng tarqalgan patologiya bo'lib, ginekologik kasalliklar strukturasining 60-65% ni tashkil qiladi. Bachadon bo'ynidagi yallig'lanish kasalliklari – servitsitlar ayollar reproduktiv organlari kasalliklari shikoyati bilan murojaat qilgan ayollarning 42% da uchraydi. Nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanishi kasalliklarining dolzarbligi ayollar hayot sifatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatib, nafaqat bemorlarning ish qobiliyatini pasaytiradi, balki jinsiy, siydik ayiruv tizimlari tomonidan kuzatiluvchi funksional buzilishlarga sabab bo'ladi. Nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanish kasalliklari muammosining dolzarbligi, shuningdek, ushbu patologiya ayolning reproduktiv salomatligi uchun ko'plab salbiy oqibatlari bilan bog'liq. Ilmiy o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra nospetsifik servitsitlar bachadon bo'yni ektopiyasi va displaziyasining shakllanishida muhim rol o'ynashi aniqlangan. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda ushbu kasallikka standart davolash metodlaridan tashqari yana qo'shimcha ravishda ushbu kasallikka tashxis qo'yish va uni davolash usullarini takomillashtirishning zaruriyatini ko'rsatadi.

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida PRP- terapiya tibbiyotning turli sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda. PRP (trombotsitlarga boy plazma) terapiyasi – bemorning qonidan ajratilgan plazmani bemorning tanasiga qayta yuborish orqali kasallikni davolash usuli hisoblanadi. Plazma tarkibi ko'p sonli trombotsitlar va o'sish faktorlariga boy bo'lib, hozirgi kunda turli tibbiyot sohalarida, jumladan, dermatologiya, travmatologiya, reproduktologiya, urologiya,

mikroxirurgiya, estetik tibbiyot va boshqa sohalarda tobora keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. 2020 – yilda Pubmed saytida chop etilgan ilmiy tekshiruv natijalariga ko'ra PRP – terapiyaning asosiy ta'sir mexanizmlari ko'rsatilib o'tilgan. Unga ko'ra, plazma qon tarkibidan 5-6 barobar ko'proq miqdorda trombotsitlarni o'zida saqlaydi va trombotsitlar esa to'qimalar regeneratsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'sish faktorini ishlab chiqarish xususiyatiga ega. Tarkibida o'sish faktorini yuqori konsentratsiyada saqlaganligi uchun trombotsitlar yallig'lanishga qarshi, immunomodulyator hamda regenerativ ta'sir ko'rsatadi va reabilitatsiya davrini yanada qisqartiradi (Peter Events, Kentaro Onishi va boshqa mualliflar, 2020).

Tekshiruv maqsadi. Nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanishi kasalliklarida PRP – terapiyani amaliyotga taqbiq etish va uning samaradorligini baholash.

Tadqiqot metodlari: Tekshiruv materiallari 2024-2025-yil oralig'ida Toshkent tibbiyot akademiyasi Ayollarni sog'lomlashtirish markaziga murojaat qilib kelgan nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanishi kuzatilgan 40 ta ayollarda PRP – terapiyasi muolajasi o'tkazilgandan keyin bemorlar hayot sifatini baholash tahlili uchun so'rovnoma, umumiy klinik va laborator tekshiruv usullari , instrumental tekshiruv usullari (kolposkopiya, vaginal ultratovush tekshiruvi, qindan surtma olishva boshqalar), statistik tadqiqot usullari o'rganib chiqildi.

Natija: Biz tadqiqotimizda Ayollarni sog'lomlashtirish markaziga murojaat qilib kelgan nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanish kasalligi kuzatilgan 40 ta bemorlarni 2 guruhga ajratdik: ulardan 1-guruh: nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanishi kasalligi kuzatilgan bemorlarda PRP – terapiya qilingan ayollar (n=20)

2 – guruh: nospetsifik bachadon bo'yni yallig'lanishi kasalligi kuzatilgan bemorlarda PRP – terapiya qilinmagan ayollar (n=20).

Tadqiqot natijasiga ko'ra nospetsifik servitsit kuzatilgan bemorlarning o'rtacha yoshi 30 yoshni tashkil etadi. Biz ushbu bemorlarga muolaja o'tkazishdan oldin qindan surtma olish, vaginal ultratovush tekshiruv, kolposkopiya kabi

tekshiruvlarni o'tkazdik. 1-guruh ayollarda standart davoga kompleks ravishda PRP terapiyasini o'tkazdik, 1 hafta davomida 3 marotaba bemorlarning o'z qonidan olingan plazmasini yallig'langan bachadon bo'yniga inyeksiya ko'rinishida yubordik. 2-guruh bemorlarda esa faqatgina standart asosida davo muolajalarini o'tkazdik. Tadqiqot natijalariga ko'ra 20 ta PRP o'tkazilgan ayollarda qin surtmasi tahlili, vaginal ultratovush tekshiruvi, kolposkopiya tekshiruvlarida 2-guruh, ya'ni PRP terapiyasi o'tkazilmagan ayollarga nisbatan tahliliy natijalar 25-30% ga yaxshilanganligi aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko'ra nospetsifik servitsit kuzatilgan bemorlarni davolashda standart davoga qo'shimcha ravishda PRP – terapiya muolajasi o'tkazilgandan so'ng ushbu usul samaradorligining bemorlardagi klinik simptomlarning ancha kamayganligi, tahliliy natijalardagi sezilarli o'zgarishlar va bemorlar hayot sifatining yaxshilanganligi asosida yuqori effektivlikka ega davolash metodi ekanligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Занько С.Н. “Гинекология” 2010;
2. В.Е.Радзинский, А.М.Фукс, С.В.Апресян, Ч.Г.Гагаев “Гинекология. Учебник” 2022
3. www.plasmolifting.online
4. www.prplab.ru